# 01 한글 익히기 I

Koreys tili alifbosini o‘rganish I

## 1 한글 소개 Koreys tili alifbosi

K-1

Qadimda koreyaliklar xitoy iyerogliflariga asoslangan yozuvdan foydalanganlar. Lekin bu yozuv murakkab bo‘lib, uni o‘rganish oddiy aholi vakillari uchun qiyinchiliklar tug‘dirgan. Shu sababli bu yozuvdan jamiyatning oliy va o‘rta tabaqalariga mansub shaxslargina foydalana olganlar. 1443-yilda Choseon sulolasining qiroli buyuk Sejong rahbarligi ostida savodsizlikni bartaraf qilish maqsadida aholining turli tabaqalari, shu jumladan oddiy xalq vakillari ham o‘rganishi oson bo‘lgan yangi koreys yozuvi – Xangil yaratildi.

### (1) Unli harflarning yasalishi



| | |
|---|---|
| • | osmon |
| — | yer |
| ㅣ | odam |

| | |
|---|---|
| ㅣ+ • = | ㅏ [a] |
| ㅣ + • • = | ㅑ [ja] |
| • + — = | ㅗ [o] |
| • • + — = | ㅛ [jo] |

Uchta asosiy unli (osmon (•), yer (—), odam ( ㅣ)) asosida ‘ㅏ, ㅑ, ㅓ, ㅕ, ㅗ, ㅛ, ㅜ, ㅠ’ kabi unlilar yaratildi. Qolgan unlilar esa asosiy harflar bilan qo‘shilib hosil qilindi.

### (2) Undosh harflarning yasalishi




Koreys tilida asosiy hisoblangan ‘ㄱ, ㄴ, ㅁ, ㅅ, ㅇ’ undosh harflari asosiy nutq organi ko‘rinishi shaklida yaratildi.

| | |
|---|---|
| ㄱ [k/g] | → ㅋ [kʰ] |
| ㄷ [t/d] | → ㅌ [tʰ] |
| ㅂ [p/b] | → ㅍ [pʰ] |
| ㅈ [ʧ/ʤ] | → ㅊ [ʧʰ] |

Asosiy undoshlarga chiziqcha qo‘shish yordamida kuchli havo oqimi ta’sirida vujudga keladigan ‘ㅋ, ㅌ, ㅍ, ㅊ’ tovushlari shakllantirildi.

| | | |
|---|---|---|
| ㄱ [k/g] | → ㄲ [k'] | Talaffuz jarayonida yuzaga keladigan kuchlanishni ifodalash uchun undosh harfni ikki marta yozish usulidan qoʻllanildi. Natijada ‘ㄲ, ㄸ, ㅃ, ㅆ, ㅉ’ harflari hosil boʻldi. |
| ㄷ [t/d] | → ㄸ [t'] | |
| ㅂ [p/b] | → ㅃ [p'] | |
| ㅅ [s] | → ㅆ [s'] | |
| ㅈ [ʧ/ʤ] | → ㅉ [ʧ'] | |

**(3) Boʻgʻin inlarning ifodalanishi**

Undosh va unli birlashib, boʻgʻinga aylanadi. Boʻgʻinda kamida bitta undosh va bitta unli mavjud boʻlishi kerak. Shuning uchun unlidan oldin undosh tovush yoʻq boʻlsa, undosh tovushning oʻrniga tovushsiz ‘ㅇ’ undoshidan foydalaniladi. (‘ㅇ’ undoshi unlilar oldidan kelsa oʻqilmaydi, faqat unlining oʻzi oʻqiladi). Undosh va unli hech qachon yakka holda yozilmaydi. Undoshlar boʻgʻin boshida ham, boʻgʻin oxirida ham kelishi mumkin.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ① | Undosh + Tik unli | CV | 나 |
| | Undosh + Yotiq unli | C<br>V | 노 |
| ② | Tovushsiz undosh + Tik unli | (C)V | 아 |
| | Tovushsiz undosh + Yotiq unli | (C)<br>V | 오 |
| ③ | Undosh + Tik unli + Undosh(patchim) | CV<br>C | 밥 |
| | Undosh + Yotiq unli + Undosh(patchim) | C<br>V<br>C | 문 |
| ④ | Tovushsiz undosh + Tik unli + Undosh(patchim) | (C)V<br>C | 안 |
| | Tovushsiz undosh + Yotiq unli + Undosh(patchim) | (C)<br>V<br>C | 웅 |

## 2 모음 1 Unli 1

K-2

Koreys tili alifbosida 21 ta unli mavjud bo‘lib, ular tik unlilar ( ㅣ, ㅏ, ㅑ, ㅓ, ㅕ ) va yotiq unlilarga (ㅡ, ㅗ, ㅛ, ㅜ, ㅠ)  bo‘linadi.

### 1. Unli tovushlarning talaffuzi



Birgalikda unli tovushlarni talaffuz qilishni o‘rganamiz. Avval ko‘zgu tayyorlab oling. Endi CDdan unlilarning talaffuzini tinglab, ko‘zguga qaragan holda quyida berilgan tasvirlar yordamida unlilarni qaytaring. Unlilarni tik unlilar va yotiq unlilar guruhiga bo‘lib, mashq qiling.

| Tik unlilar | | Yotiq unlilar | |
|---|---|---|---|
| ㅣ [i] |  | ㅡ [ɨ] |  |
| ㅏ [a] |  | ㅗ [o] |  |
| ㅑ [ja] |  [i] + [a] | ㅛ [jo] |  [i] + [o] |
| ㅓ [ʌ] |  | ㅜ [u] |  |
| ㅕ [jʌ] |  [i] + [ʌ] | ㅠ [ju] |  [i] + [u] |



Yana bir bor mashq qilib koʻramizmi?

**(1)** ‘ㅏ’ unlisini talaffuz qilib koʻring. Endi ‘ㅓ’unlisini talaffuz qilib koʻring. Xoʻsh, ‘ㅏ’ va ‘ㅓ’ unlilarni talaffuz qilganingizda ogʻzingizning shaklida qanday oʻzgarishlar yuz berdi? Ogʻzingizni katta qilib ochgan holda ‘ㅏ’ unlisini talaffuz qilib, ogʻzingizni ozgina yopgan holga ‘ㅓ’ unlisini talaffuz qilib koʻring. Ogʻiz shakliga e’tibor berib ‘ㅏ’ va ‘ㅓ’ unlilarini navbat bilan bir necha marta talaffuz qilib ko’ring.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ㅏ [a] |  | ㅓ [ʌ] |  |

**(2)** Avval ‘ㅜ’ unlisini keyin ‘ㅗ’ unlisini talaffuz qilib koʻring. Xoʻsh, ‘ㅜ’ va ‘ㅗ’ unlilarni talaffuz qilganingizda ogʻzingizning shaklida qanday oʻzgarishlar yuz berdi? ‘ㅜ’ unlisini talaffuz qilishda ogʻiz yumaloq shaklga keltirilib, juda torayadi, lablar oldinga choʻziladi. ‘ㅗ’ unlisini talaffuz qilganda esa lablar yumaloq shaklga keltirilib, ogʻizni ozgina ochish lozim. Ogʻzingizning shakliga e’tibor bergan holda ‘ㅜ’ va ‘ㅗ’ unlilarini navbat bilan bir necha marta talaffuz qilib koʻring.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ㅜ [u] |  | ㅗ [o] |  |

**(3)** Avval ‘ㅣ’unlisini keyin ‘ㅡ’ unlisini talaffuz qilib koʻring. Xoʻsh, ‘ㅣ’ va ‘ㅡ’ unlilarni talaffuz qilganingizda ogʻzingizning shaklida qanday oʻzgarishlar yuz berdi? Demak, ‘ㅣ’ unlisi talaffuz qilinganda til tishlarga tiraladi. ‘ㅡ’ unlisidan koʻra til yanada oldinga chiqadi. ‘ㅡ’ unlisini talaffuz qilganda tilni tishga tiramasa ham boʻladi va tovush ogʻizning nisbatan tor ochilishi bilan talaffuz etiladi. Tabiiy holatda ogʻizni havoni chiqaradigan darajada ozgina ochib, talaffuz qilib koʻring. Ogʻiz shakliga e’tibor berib ‘ㅣ’ va ‘ㅡ’ unlilarini navbati bilan talaffuz qilib, mashq qiling.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ㅣ [i] |  | ㅡ [ɨ] |  |



Endi ikki unlining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qo‘shma unli(diftong)larning talaffuzini mashq qilamiz. Tik unlilar orasida ‘ㅑ, ㅕ’ kabi gorizontal ikkita chiziqchaga ega bo‘lgan unlilar va yotiq unlilar orasidan vertikal ikkita chiziqchasi bo‘lgan ‘ㅛ, ㅠ’ unlilari qo‘shma unlilar deyiladi.

**(1)** ‘ㅑ’ va ‘ㅕ’ unlilarini navbat bilan talaffuz qilib ko‘ramiz.
‘ㅑ’ unlisini talaffuz qilganda ‘ㅣ’ unlisini qisqa qilib, ‘ㅏ’ unlisini uzunroq qilib ovoz chiqaring. ‘ㅕ’ unlisini talaffuz qilganda ‘ㅣ’ ni qisqa qilib, ‘ㅓ’ ni uzoqroq qilib ovoz chiqarib ko‘ring. Ushbu qo‘shma unlilarni bir xil darajada cho‘zib talaffuz qiling va talaffuz chog‘ida ikki xil monoftong, ya’ni yakka tovush sifatida talaffuz qilish kabi xatolikka yo‘l qo‘ymang.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ㅑ<br>[ja] | <br>[i] + [a] | ㅕ<br>[jʌ] | <br>[i] + [ʌ] |

**(2)** ‘ㅛ’ va ‘ㅠ’ unlilarini navbat bilan talaffuz qilib ko’ring.
‘ㅠ’ unlisini talaffuz qilgan paytda ‘ㅣ’ unlisini qisqa qilib ‘ㅗ’ unlisini esa uzunroq qilib tovush chiqaring. ‘ㅠ’ unlisini talaffuz qilganda ‘ㅣ’ unlisini qisqa qilib ‘ㅜ’ unlisini cho‘zibroq tovush chiqaring. Ushbu qo‘shma unlilarni bir xil darajada cho‘zib talaffuz qiling va talaffuz chog‘ida ikki xil monoftong, ya’ni yakka tovush sifatida talaffuz qilish kabi xatolikka yo‘l qo‘ymang.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ㅛ<br>[jo] | <br>[i] + [o] | ㅠ<br>[ju] | <br>[i] + [u] |

## 2. Unlilarning yozilishi

Hozir unlilarni yozish tartibi bilan tanishamiz. Tik shakldagi unlilarni yozish paytida yuqoridan pastga qarab, yotiq unlilarni yozganda esa chap tomondan o‘ngga qarab yozish lozim.

| Tik unlilar | | | Yotiq unlilar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| ㅣ<br>[i] | <br>(○) | <br>(X) | ㅡ<br>[ɨ] | <br>(○) | <br>(X) |



Tik turgan odamni tasvirlovchi tik unlilarning vertikal chizigʻini uzunroq, gorizontal chizigʻini esa qisqaroq yozish lozim. Tekis yerni anglatuvchi yotiq unlilarning yotiq chizigʻini uzunroq qilib, tik chizigʻini esa qisqaroq qilib yozish kerak. Unli tovushlarni tinglang va yozing.

| Unli | Yozish tartibi | Yozish | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ㅣ [i] | ㅣ ① | | | | | | |
| ㅏ [a] | ㅏ ① ② | | | | | | |
| ㅑ [ja] | ㅑ ① ② ③ | | | | | | |
| ㅓ [ʌ] | ㅓ ① ② | | | | | | |
| ㅕ [jʌ] | ㅕ ① ② ③ | | | | | | |
| ㅡ [ɨ] | ㅡ ① | | | | | | |
| ㅗ [o] | ㅗ ① ② | | | | | | |
| ㅛ [jo] | ㅛ ① ② ③ | | | | | | |
| ㅜ [u] | ㅜ ① ② | | | | | | |
| ㅠ [ju] | ㅠ ① ② ③ | | | | | | |



Yozdingizmi? Yana bir bor unli tovishlarni tinglang va qaytaring.

Unlilar hech qachon o‘zi yakka holda yozilmaydi. Undosh va unlilar birgalikda yozilishi kerak. Shuning uchun unlidan oldin undosh tovush yo‘q bo‘lsa, undosh tovushning o‘rniga tovushsiz ‘ㅇ’ undoshidan foydalaniladi. (‘ㅇ’ undoshi unlilar oldidan kelsa o‘qilmaydi, faqat unlining o‘zi o‘qiladi). Tik unlilarda ‘ㅇ’ undoshi chap tomondan yoziladi va yotiq unlilarda ‘ㅇ’ undoshi ustki tomondan yoziladi.

| | | |
|---|---|---|
| ㅇ | ㅏ | [a] |

| | |
|---|---|
| ㅇ<br>ㅗ | [o] |



Tinglang va yozing.

| Unli | Talaffuzi | Yozish | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ㅣ | [i] | 이 | 이 | 이 | | | |
| ㅏ | [a] | 아 | 아 | 아 | | | |
| ㅑ | [ja] | 야 | 야 | 야 | | | |
| ㅓ | [ʌ] | 어 | 어 | 어 | | | |
| ㅕ | [jʌ] | 여 | 여 | 여 | | | |
| ㅡ | [ɨ] | 으 | 으 | 으 | | | |
| ㅗ | [o] | 오 | 오 | 오 | | | |
| ㅛ | [jo] | 요 | 요 | 요 | | | |
| ㅜ | [u] | 우 | 우 | 우 | | | |
| ㅠ | [ju] | 유 | 유 | 유 | | | |

## 연습 Mashqlar

1. Quyidagi unlilarni birma-bir talaffuz qilib koʻring. Talaffuz qildingizmi? Unday boʻlsa, CDni tinglab talaffuzingizni tekshirib koʻring. Notoʻgʻri talaffuz qilgan unlilaringizni diqqat bilan qayta tinglab, qaytaring.

(1) 아 어 오 우 으　　(2) 오 아 어 우 이
(3) 야 여 요 유　　(4) 요 야 여 유

2. Tinglang va toʻgʻri javobni tanlang.

(1) 아 오　　(2) 우 으　　(3) 어 오
(4) 야 아　　(5) 오 요　　(6) 여 유

3. Tinglang va harflarni tartib bilan bogʻlang. Qanday tasvir hosil boʻldi?

이 •　　• 우

아 •　　• 여

으 •

정답 2. (1) 아 (2) 우 (3) 오 (4) 야 (5) 요 (6) 유 3. ☆

4. Diqqat bilan tinglab, raqamlarni harflar bilan yozib ko‘ring.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| (1) 2 | | | | |
| (2) 5 | | | | |
| (3)  | | | | |
| (4)  | | | | |
| (5)  | | | | |
| (6)  | | | | |



Yozdingizmi? Endi bu so‘zlarni o‘zingiz talaffuz qilib, kamida uch marta yozing.



정답 (1) 이 (2) 오 (3) 아이 (4) 오이 (5) 우유 (6) 여우

## 3 모음 2 Unli 2

K-3



Endi boshqa unlilarni oʻrganamiz. CDni tinglang va qaytaring.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| ㅐ [ɛ] | ㅏ + ㅣ | ㅘ [wa] | ㅗ + ㅏ | ㅚ [ø/we] | ㅗ + ㅣ |
| ㅔ [e] | ㅓ + ㅣ | ㅝ [wʌ] | ㅜ + ㅓ | ㅙ [wɛ] | ㅗ + ㅐ |
| ㅒ [jɛ] | ㅑ + ㅣ | ㅟ [y/wi] | ㅜ + ㅣ | ㅞ [we] | ㅜ + ㅔ |
| ㅖ [je] | ㅕ + ㅣ | ㅢ [ɨi] | ㅡ + ㅣ | | |

Tik unlilar orasida ‘ㅐ, ㅖ’ kabi unlilariga oʻxshash gorizontal ikki qisqa chiziqchasi boʻlgan unlilar va yotiq unlilar orasida vertikal ikki qisqa chiqizchasi boʻlgan ‘ㅘ, ㅝ’ unlilar qoʻshma unlilardir.



Keling, yana bir bor mashq qilib koʻramiz.

**(1)** ‘ㅐ’ va ‘ㅔ’ unlilarini talaffuz qilib ko’ring. Bu ikki unli tovushning talaffuzi oʻxshar ekanmi?

Ilgari bu ikki xil unlilarning talaffuzi bir-biridan farq qilgan. Lekin hozirgi koreys tilida bu unlilarning talaffuzi bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Shuning uchun ularni farqlash qiyin. Lekin xavotir olmasangiz ham boʻladi, chunki koreyslarning koʻpchiligi ham bu tovushlarni farqlay olmay deyarli bir xil talaffuz qiladi.

| | |
|---|---|
| ㅐ [ɛ] | ㅔ [e] |

**(2)** ‘ㅒ’ va ‘ㅖ’ unlilarini talaffuz qilib ko‘ring.

Bu ikki unli tik unlilar hisoblanib, ikki vertikal chiziqcha yordamida ifodalangan qo‘shma unlilar guruhiga mansub. Bu ikki unlining talaffuzi ham bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Shu bois ularning talaffuzini farqlash qiyinchilik tug‘diradi. Yuqorida keltirilgan ‘ㅐ’ va ‘ㅔ’ unlilar singari koreyslarning ko‘pchiligi ham bu tovushlarni farqlay olmay deyarli bir xil talaffuz qiladi.

| ㅒ | ㅖ |
|---|---|
| [jɛ] | [je] |

**(3)** ‘ㅚ’, ‘ㅙ’, ‘ㅞ’ unlilarini talaffuz qilib ko‘ring. Ularning talaffuzi ham bir-biriga juda o‘xshaydi. Bu uchala unli yotiq va tik unlilar birga qo‘shib yoziladigan qo‘shma unlilar guruhiga mansub.

| ㅚ | ㅙ | ㅞ |
|---|---|---|
| [ø/we] | [wɛ] | [we] |

**(4)** ‘ㅘ’ va ‘ㅝ’ unlilarini navbat bilan talaffuz qilib ko‘ring. Ushbu ikki xil unlilarning hammasi yotiq va tik unlilar bilan birga qo‘shib yoziladigan qo‘shma unlilar guruhiga kiradi.

| ㅘ | ㅝ |
|---|---|
| [wa] | [wʌ] |

**(5)** ‘ㅟ’ va ‘ㅚ’ unlilarini navbat bilan talaffuz qilib ko‘ring. Bu ikkala unli ham yotiq va tik unlilar bilan birga qo‘shib yoziladigan qo‘shma unlilar guruhiga mansub.

| ㅟ | ㅚ |
|---|---|
| [y/wi] | [ø/we] |

**(6)** ‘ㅢ’ unlisini yana bir bor talaffuz qilib ko‘ring. ‘ㅡ’ unlisini qisqa talaffuz qilib, tezda ‘ㅣ’ unlisini ovoz chiqarib talaffuz qiling. Bu ikki unli ham yotiq va tik unlilar bilan birga qo‘shib yoziladigan qo‘shma unlilar guruhiga mansub.

| ㅢ |
|---|
| [ɨi] |



Endi yozib koʻramiz. CDni tinglang, qaytaring va yozing.

| Unli | Yozish tartibi | Yozish | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ㅐ [ɛ] |  | | | | | |
| ㅔ [e] |  | | | | | |
| ㅒ [jɛ] |  | | | | | |
| ㅖ [je] |  | | | | | |
| ㅘ [wa] |  | | | | | |
| ㅝ [wʌ] |  | | | | | |
| ㅟ [y/wi] |  | | | | | |
| ㅚ [ø/we] |  | | | | | |
| ㅙ [wɛ] |  | | | | | |
| ㅞ [we] |  | | | | | |
| ㅢ [ɨi] |  | | | | | |



Yozdingizmi? Endi yana bir bor unlilarni tinglang va qaytaring.



Quyidagidek yozish mumkin emas. E’tibor bering.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ㅘ (○) | ㅝ (○) | ㅟ (○) | ㅞ (○) |
| ㅗㅓ (X) | ㅜㅏ (X) | ㅣㅜ (X) | ㅜㅔ (X) |



Unlilar hech qachon o'zi yakka holda yozilmaydi. Undosh va unlilar birgalikda yozilishi kerak. Shuning uchun unlidan oldin undosh tovush yo'q bo'lsa, bu undoshning o'rniga tovushsiz 'ㅇ' undoshi yoziladi. ('ㅇ' undoshi unlilar oldidan kelsa o'qilmaydi, faqat unlining o'zi o'qiladi). Tik unlilarda 'ㅇ' undoshi chap tomondan yoziladi va yotiq unlilarda 'ㅇ' undoshi ustidan yoziladi.



Tinglang va qaytaring. Qo'shma unlilarni 'ㅇ' undoshi bilan birga yozib ko'ring.

| Unli | Talaffuz | Yozish | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ㅐ | [ɛ] | 애 | 애 | 애 | | | |
| ㅔ | [e] | 에 | 에 | 에 | | | |
| ㅒ | [jɛ] | 얘 | 얘 | 얘 | | | |
| ㅖ | [je] | 예 | 예 | 예 | | | |
| ㅘ | [wa] | 와 | 와 | 와 | | | |
| ㅝ | [wʌ] | 워 | 워 | 워 | | | |
| ㅟ | [y/wi] | 위 | 위 | 위 | | | |
| ㅚ | [ø/we] | 외 | 외 | 외 | | | |
| ㅙ | [we] | 왜 | 왜 | 왜 | | | |
| ㅞ | [wɛ] | 웨 | 웨 | 웨 | | | |
| ㅢ | [ɨl] | 의 | 의 | 의 | | | |

## 연습 Mashqlar

1. Quyidagi unlilarni birma-bir talaffuz qilib ko‘ring. Talaffuz qildingizmi? Endi CDni tinglab, to‘g‘ri talaffuz qilgan unlilarni “○” belgisi bilan belgilang. Noto‘g‘ri talaffuz qilgan unlilaringizni qayta tinglab, mashq qiling.

(1) 애 예 와 워　　(2) 위 의 와 웨
(3) 워 에 예 의　　(4) 왜 와 에 예

2. Tinglang va to‘g‘ri javobni tanlang.

(1) 애 예　　(2) 웨 워
(3) 위 의　　(4) 와 왜

3. Tinglang va eshitgan so‘zlaringizni navbatma-navbat tutashtiring.

| | | |
|---|---|---|
| 아이 | | 얘 |
| 와 | | 위 |
| 여우 | 에 | 의 |
| 왜 | 오이 | 우유 |

Qanday tasvir hosil bo‘ldi?

정답 2. (1) 애 (2) 웨 (3) 위 (4) 와 3. ☆ (위 → 여우 → 에 → 의 → 와 → 오이 → 위)

4. Diqqat bilan tinglab, yozib ko‘ring.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| (1)  | | | | |
| (2)  | | | | |
| (3)  | | | | |
| (4)  | | | | |
| (5)  | | | | |
| (6)  | | | | |



Yozdingizmi? Endi yozganlaringizni talaffuz qilib, kamida uch marta yozing.



정답 (1) 예 (2) 와 (3) 왜 (4) 와요 (5) 위에 (6) 외워요